

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA XILOLA YUNUSXANOVNA**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA CHET TILNI  
O'RGATISH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI  
SHAKLLANTIRISH METODIKASI (ingliz tili misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Ergasheva Xilola Yunusxanovna**

Ma'ktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilni o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (ingliz tili misolida)..... 3

**Эргашева Хилола Юнусхановна**

Методика формирования коммуникативной компетенции в обучении иностранному языку детей школьного возраста (на примере английского языка)..... 25

**Ergasheva Khilola Yunusxanovna**

Methodology for the development of communicative competence of preschool children in teaching a foreign language (the example of the English language).... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA XILOLA YUNUSXANOVNA**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA CHET TILNI  
O'RGATISH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI  
SHAKLLANTIRISH METODIKASI (ingliz tili misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5269 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Asqarova O'gilxon Mamashakirovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Isroilova Dildora Muhtarovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Tursunov Husanboy Burgutovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "21" oktabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28. Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz) / [namdhti@edu.uz](mailto:namdhti@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (12 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on shahri, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz) / [namdhti@edu.uz](mailto:namdhti@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" oktabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil "11" oktabr dagi 17 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.T.Dosbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d. (DSc), professor

**I.I.Umrzaqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.A.Misirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.n., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bugungi tez taraqqiy etayotgan jamiyat rivojida chet tillarni erta yoshdan o'rgatishni uzluksiz ta'lim tizimiga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, maktabgacha yoshdan boshlab chet tillarni, xususan ingliz tilini o'rgatish zarurati va ehtiyojining paydo bo'lishi ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning kelajakda qaysi soha mutaxassisi bo'lishlaridan qat'iy nazar til o'rganishga bo'lgan kompetensiyasini shakllantirish, mukammallashtirish, boyitish uchun muhimdir. Qolaversa, bolalarga erta yoshdan chet tilni o'rgatish uchun rivojlantiruvchi muhit va o'quv jarayonini samarali tashkil etish zarurdir. Angliya, Germaniya, AQSh, Koreya, Yaponiya, Fransiya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv ta'minlanmoqda. Koreya bolalarga g'amxo'rlik va ta'lim instituti (KICCE), erta bolalik davridagi ta'lim va parvarish bilan bog'liq tadqiqotlarga e'tibor qaratmoqda. Ular maktabgacha ta'lim muassasalarida hamkorlikni rag'batlantirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchilar malakasini oshirishda klaster tizimlarining samaradorligini o'rganishni taqozo etmoqda.

Dunyoda eng kichik yoshdagi (very young learners) bolalarga chet tilni o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishdagi tadqiqotlar sezilarli darajada amalga oshirilmogda. Ta'lim instituti, London universitet kolleji (London's Global University) (UCL), Buyuk Britaniya: UCL ta'lim instituti maktabgacha ta'limning turli jihatlarini, maktabgacha ta'lim klasterlarida hamkorlikdagi yondashuvlar, resurslarni taqsimlash va kasbiy rivojlanish samaradorligini o'rganmoqdalar jumladan, klaster tizimlarining ta'lim natijalariga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormogda.

Respublikamizda ta'lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish, maktabgacha ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet til o'rgatish jarayonida bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyalarining tadqiqi dolzarbdir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkizish maqsadida ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmogda va ularga alohida e'tibor berilmogda.

“Shuning uchun maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir”<sup>1</sup>. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M.Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2019.–26 bet.

Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining ingliz tilida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha masalalar olimlarimiz G.T.Mahkamova<sup>2</sup> G‘.Sh.Tajibayev<sup>3</sup>, H.B.Tursunov<sup>4</sup>, Q.Q.Ahmadjonova,<sup>5</sup> Sh.H.Akbarova,<sup>6</sup> A.E.Rustamova,<sup>7</sup> A.V.Ermirzayevlarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlari O.V.Koryakovtseva, N.V.Titarenko, A.V.Jukova, Yu.B.Yudovina, V.V.Xvoynova, A.N.Utexina, I.V.Vronskaya, N.A.Onishiklarning maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarni o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq tadqiqot ishlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti tadqiq etilgan<sup>8</sup>.

<sup>2</sup> Г. Маҳкамова. Формирование навыков и умений иноязычной речи у дошкольников. Т.: 2008.–198 с.

<sup>3</sup> Тажибаев Г.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тил ўқитишда коммуникатив ёндашув.: Автореф. дисс. пед. фан. докт. – Т. : 2018. – 24 бет.

<sup>4</sup> H.B.Tursunov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kommunikativ kompetensiyalarini didaktik o‘yinlar vositasida shakllantirish (fransuz tilini o‘rgatish misolida) .: Avtoreferat.diss.ped.fan.dok. –N. : 2022. – 48 bet.

<sup>5</sup> Аҳмаджонова Қ.Қ. Мактабгача таълим ташкilotлари тарбияланувчиларига чет тилни ўргатишда мультимедиа иловаларидан фойдаланиш технологияси.: : Автореф. дисс. пед. фан. докт. – Т. : 2022. – 24 бет.

<sup>6</sup> Акбарова Ш.Х. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тили лексикасини ўргатиш методикаси. –Т.: 2020. –165 бет.

<sup>7</sup> Рустамова А.Э. Мактабгача ёшдаги болаларда чет тилини ўқитишда талаффузни шакллантириш ва ривожлантириш. –С.: 2021. –136 бет

<sup>8</sup> Коряковцева О.В. Теоретические основы организации изучения иностранного языка учащимся на базе развития продуктивной учебной деятельности: Общеобразовательная школа. 2003.; Титаренко Н.В. Методика организации ролевых игр проблемной направленности при дистанционном обучении иностранным языкам. Дисс. ...канд.пед.наук. – Москва. 2007. – 258 с.;

Жукова А. В. Речевое развитие детей дошкольного возраста в условиях специализированного обучения иностранному языку. Дисс. ...канд.пед.наук. – Ижевск. 2006. – 158 с.;

Юдовина Ю.Б. Развитие интеллектуальных способностей ребёнка дошкольного возраста при овладении английским языком в процессе игровой речевой деятельности. Дисс. ...канд.псих.наук. – Санкт-Петербург. 2000. – 228 с.;

Хвойнова В.В. Формирование познавательного интереса детей старшего дошкольного возраста к английскому языку в процессе игровой деятельности. Дисс. ...канд.пед.наук. – Якутск. 2010. – 248 с.;

Утехина А.Н. Иностраный язык в дошкольном возрасте: Теория и практика. – М.; Флинта, Наука. 2017. – 184 с.;

Вронская И.В. Методика раннего обучения английскому языку. – СанктПетербург: КАРО, 2015. – 336 с.;

Онищик Н.А. Успешное обучение английскому языку детей 3-7 лет: учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург: КАРО, 2013. – 320 с.;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ularni har tomonlama rivojlantirish masalalari J.Dewey, A.Kirsten, Keyt Burk Uolsh, M.Montessori, Jan Piaget, A.Hachfeld, A.Yvonne, S.Kuger, K.H.Christians, von Steinbueche, H.Gibbons, R.Kramer, G.V.Leonidova, I.I.Svirelkina, M.Lzhubesi, S.Simlesa, Z.Seer kabi xorijiy olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Biroq maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga chet tilni o‘rgatish jarayonida kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish texnologiyasining ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘qituvchilar tayyorlash: ta‘lim-tarbiya muammolari va istiqbollari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga chet til o‘rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

maktabgacha yoshdagi bolalarga chet til o‘qitishning psixologik, lingvodidaktik va pedagogik prinsiplarini aniqlashtirish;

Ona tilida fikr ifodalash malakalarining shakllanishini ta‘minlovchi omillarni aniqlash va ulardan maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi chet til mashg‘ulotlarida foydalanish metodikasini rivojlantirish;

chet til o‘rgatishda tanlangan mezonlarga mos holda, bolalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish darajalari tizimini, mazmuni va omillarini aniqlash, klasterlash modelini takomillashtirish;

chet til o‘rgatishda kommunikativ kompetensiyani egallanganlik darajasini baholashga doir maxsus tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida chet til o‘rgatish jarayonida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni belgilanib, Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlaridagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining jami 310 nafar tarbiyalanuvchilari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** chet til o‘rgatish jarayonida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari, shakl, metod, vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda kuzatuv, diagnostik (anketa, suhbat, so‘rov), loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlildan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarga chet til o‘qitishning psixologik, lingvodidaktik, va pedagogik prinsiplari ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyat komponentlari (maqsadli-mazmunli, tashkiliy-metodik, nazorat-baholash)ning bolalarning rivojlanish sohalari (jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) bilan o‘zaro integratsiyalash hamda refleksiv uzviylikni ta‘minlash asosida takomillashtirilgan;

ona tilida fikr ifodalash malakalarining shakllanishini ta'minlovchi organization, adaptation, assimilation, accommodation kabi psixologik omillar aniqlashtirilib, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarning tayanch kompetensiyalari (kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish) ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

chet (ingliz) tilni o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning ingliz tilida fikr ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishning bosqichlari refleksivlik, kreativlik, innovatsion faoliyatga yo'nalganlik kabi indikatorlar tarkibini kiritish asosida aniqlashtirilgan;

chet til o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirishda foydalanish maqsadida "Smart kids" elektron qo'llanmasi komponentini kiritish asosida takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

chet til o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va amaliy qo'llashga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirilgan;

chet til o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy usullardan tizimli foydalanish mexanizmi zarurati asoslangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining muloqot qobiliyatini shakllantirish bosqichining asosi sifatida " Qiziqarli ingliz tilini o'rgatish jarayonida bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi" nomli maxsus kurs ishlab chiqilgan;

chet til o'rgatish jarayonida bolalarni kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni samaradorligini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bolalarning chet til o'rganishlarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirishda foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalar respublikamiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarining chet til o'rgatishda tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish sifatini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.



chet (ingliz) til o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning ingliz tilida fikr ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishning bosqichlari til materialini yaxlit o'qitish yondashuvi (whole language teaching approach) va mazmunga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili (form focused instruction) asosida aniqlashtirilgan;

birinchi bosqichda bolalarning kommunikativ kompetensiyasi muloqot modellarining boy repertuari asosida shakllantirildi (Formulaic level).

Ya'ni turli nutq vaziyatlarida salomlashish, hayrlashish, uzr sorash, minnatdorchilik bildirishning muloqot modellari yaxlitligicha yodlatildi.

Ikkinchi bosqichda muloqot modellari (How do you do? Good morning. I am sorry. Thank you. You are welcome.) bo'laklarga ajratib e'tibor mazmunga emas shaklga qaratildi. Chet til o'rgatishning dastlabki bosqichida asosiy e'tibor mazmunga qaratilishi (meaning focused instruction) tavsiya etildi;

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy g'oyalardan maktabgacha ta'lim tizimlarining ingliz tilini o'rgatish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilni o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasiga doir ilmiy natijalar asosida:

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet til o'qitishning psixologik, lingvodidaktik, va pedagogik prinsiplari ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat komponentlarining bolalarning rivojlanish sohalari bilan o'zaro integratsiyalashga doir taklif va tavsiyalaridan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug'i). Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarning chet til mashg'ulotlarida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ona tilida fikr ifodalash malakalarining shakllanishini ta'minlovchi psixologik omillar aniqlashtirilgan va ulardan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi chet til mashg'ulotlarida foydalanishning imitatsion va integratsion metodikasi yordamida takomillashtirishga oid takliflar "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2022-yil iyul va oktabr oylaridagi "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar uchun" dasturlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanalining 2022-yil 24-oktabrdagi 04-36-1775-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi 5-7 yoshli bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirishga xizmat qilgan;

chet (ingliz) tilni o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning ingliz tilida fikr ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishning bosqichlari til materialini yaxlit o'qitish yondashuvi va mazmunga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili asosida aniqlashtirilgan tadqiqot materiallaridan Namangan muhandislik texnologiya institutining "InnoEnglish-Horijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari" amaliy granti loyihasi (2022-yy.) (Turan International University innovatsiya faoliyati transferi markazining 2023-yil 6-yanvardagi 107-sonli ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha

yoshdagi bolalarga chet til o'rgatish jarayonida ularning kommunikativ kompetensiyalarini shakllanganlik darajasi 13.9% ga oshgan;

chet til o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani jarayoni samaradorligi ishlab chiqilgan "Smart kids" elektron qo'llanmasi komponentini kiritish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalaridan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda № 538-sonli buyrug'i). Natijada bolalarning xorijiy til mashg'ulotlarida "Ilk qadam" mavzulariga oid terminlar va faol qo'llanadigan so'zlarni bilish va tushunish malakasi ortgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 7 ta xalqaro anjumanda va 4 ta respublika anjumanlarida muhokama qilinib aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 2 ta xorijiy konferensiyalarda, 2 tasi Respublika konferensiyalarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiya, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, 141 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet til o'rgatishning ilmiy-metodologik asoslari**" nomli I-bobida mamlakatimizda - maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash va bu bo'yicha qabul qilinayotgan qator farmonlar va qarorlar mazmuni yoritib berilgan.

Maktabgacha ta'lim – bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek, maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni sanaladi. Xususan, maktabgacha

ta'lim yoshidagi bolalarga chet til o'rgatishda ularning tafakkur va nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Tafakkur va nutq – psixologik muammolar doirasiga mansub bo'lib, unda ongning turli psixologik vazifalari, faoliyat turlarining aloqadorligi masalasi doimo muhimdir. Bu muammoning markaziy nuqtasi, albatta, fikrning so'zga munosabati masalasidir. Biroq, bu o'zaro vazifaviy aloqalar va munosabatlar muammosi, zamonaviy psixolingvistika fani uchun deyarli yangi muammolardandir. Tafakkur va nutq muammosi – psixologiya fanining o'zi kabi qadimiydir, tafakkurning nutqqa bo'lgan munosabati masalasi hanuzgacha o'rganilmoqda<sup>9</sup>.

Tadqiqotimiz doirasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet til o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning qator pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlarni ajratish imkonini berdi (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlari

Pedagogik xususiyati	Psixologik xususiyati	Metodik xususiyati
Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish chet til (nutq malakasi) egallash, axloqiy sifatlarni egallash, estetik his-tuyg'ularni shakllantirish, kattalar va o'rtoqlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash Insonparvarlik tuyg'usini ta'minlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglash Faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat) da yetarli ishtirokini ta'minlash	Bilish jarayonlarini faollashtirish Individual xususiyatlarning namoyon bo'lishi, shaxsning ma'lum bir faoliyatga yo'nalganligini ta'minlash Bilish jarayonni faollashtirish Refleksiv ko'nikmalarini namoyon bo'lishi Voqea-hodisalarning mazmunini analiz, sintez qilish va umumlashtirish Shaxsiy-emotsial, irodaviy hislarning namoyon bo'lishi Ijodiy – intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi	Ilmiy-metodik bilimlarni egallash O'qish va yozish malakasini egallash, tovushni anglash Til o'rganishga nisbatan qiziqish, intilish va havas tuyg'usini shakllantirish Amaliy va ijodiy izlanishli faoliyatga yo'naltirish Chet til egallash orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish Bilimlarni egallash (rasm chizish, bo'yash, applikasiya, loy ishi)

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet til o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ilmiy-pedagogik tizim sifatida bolalarning nafaqat chet til o'rganishini ta'minlash balki, shu bilan birga bolani dunyoqarashini kengaytirish va ijtimoiylashuviga yordam beradi. Demak, bolaning ijtimoiylashuvi til madaniyati, chet til o'rgatish orqali kommunikatsiya ta'sirida shakllanish jarayoni bo'lib, mazkur jarayon o'ziga xos xususiyatlar yuqoridagi 1-jadvalda o'z aksini topgan.

Qolaversa, bugungi kunda, amaliy jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga innovatsiyalar kiritilmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari muhim ahamiyatga ega. Davlat talablari to'rt bobdan iborat: umumiy qoidalar; davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillar; davlat talablarining

<sup>9</sup> L.S.Vigotskiy. Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard university press. – P 69.

tarkibi; yakuniy qoidalar. Shuningdek ikkita ilova: birinchi ilova – ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilayotgan talablar; ikkinchi ilova – maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilayotgan talablar.

Davlat talablari tug‘ilgandan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarning quyidagi beshta asosiy rivojlanish sohaslariga bo‘lingan: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish. Mazkur har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan. Ular maktabgacha ta’lim tashkilotlarining har bir yosh guruhiga mos talablardan iborat.

Davlat talablari asosida “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi qarori bilan tasdiqlangan.

“Ilk qadam” dasturi nomining falsafiy mazmuni – bilimlar dunyosiga birinchi qadam, birinchi muvaffaqiyat, go‘zallik, yaxshilik, samimiylik – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashning ilk asoslaridir.

Dasturning mazmuni – ijtimoiy hodisalar, inson va uning faoliyati, xulq-atvor me’yorlari, san’atning janr va turlari, jonli va jonsiz tabiat, kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qilish kabilardan tashkil topgan.

“Ilk qadam” dasturiga binoan maktabgacha ta’lim tashkilotining turli yosh guruhlarda: “Til va nutq”, “Ilm-fan va tabiat”, “Qurish-yashash, konstruksiyalash va metematika”, “San’at”, “Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish” faollik markazlarida bolalar bilan ish olib borishga qaratilgan. Ushbu bosqichda mazkur markazlarda faoliyatlar olib borish maqsadida katta va tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari uchun chet tilni egallash bo‘yicha umumiy mezonlar ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tilni egallash bo‘yicha umumiy mezonlari

Guruhlar	Mezonlar
<b>Katta guruh</b>	–xorijiy tilni ona tilidan boshqa til ekanligini farqlay bilishi; –salomlashish va xayrlashish so‘zlarini qo‘llaydi; 10 gacha sanashni biladi; –Asosiy ranglar nomini biladi (oq, sariq, qizil, yashil, ko‘k, qora).
<b>Tayyorlov guruhi</b>	–nutqida xorijiy so‘zlarni qo‘llaydi; –kichik she’rlarni, qofiyalarni so‘zlab berishi mumkin; yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha ta’limda chet til o‘rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik ta’minoti**” nomli ikkinchi bobida bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish tizimining o‘ziga xosligi va uni shakllantirishda innovatsion-integratsion yondashuvning didaktik asoslari, maktabgacha ta’limda chet til o‘rgatish jarayonida ushbu kompetensiyani shakllantirishning shakl, mazmuni hamda vositalari, shu bilan birga, texnologik yondashuvlarni amalga oshirish metodikasi yoritib berilgan.

Maktabgacha ta’limda chet til o‘rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samaradorligi ilmiy tadqiqotning metodologik

asosini tashkil etuvchi maqsad va vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, mazmun va usullar yordamida belgilanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli yo‘nalishlarda talqin qilinib, til o‘rganuvchilarning keng qamrovli fikr-mulohaza yuritishlari, erkin muloqotga kirisha olishlari, o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalaridan foydalanishga tayyorliklari hamda aniq hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishlari, faollik bilan birgalikda ijodkorlikning rivojlanib borishi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarining kengayishi, o‘z-o‘zini baholashga bo‘lgan ehtiyojlarining shakllanishi bilan xarakterlanishi aks ettirilgan va ishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning klasterli modeli tavsiya etilgan (1-rasmga qarang).

Modelning maqsadi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘lib, ushbu model asosida muloqot kompetensiyalari, bolalarda kommunikativ kompetensiyani zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bosqichlari, uning rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar ishlab chiqildi.

Chet til o‘rganishning ijtimoiy zarurati, globallasuv va madaniy hamkorlikning yuqori samarasini talab etadigan bugungi dunyoda ahamiyat kasb etmoqda. Bu o‘rganish esa, bolalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda keng imkoniyatlar, madaniy birlashmalar va keng aloqalar rivojlanishini ta‘minlaydi.


Muloqot jarayonini shakllantirish uchun o‘rgatish usullari faoliyat tamoyiliga asoslangan bo‘lishi va tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi kerak, buning natijasida ular kerakli ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Bu esa ushbu tadqiqot jarayonida faoliyat yondashuvining o‘rnini izohlaydi.

Maktabgacha ta‘limda maqsadli, mazmunli, tashkiliy metodikalar va nazorat baholashning o‘rnini ko‘rib chiqamiz:

Maqsadli: Maktabgacha ta‘limning maqsadi o‘rganuvchilarni sifatli bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlashdir. Bu maqsadga erishish uchun tarbiyalanuvchilarning o‘ziga mo‘ljallangan maqsadlar va ma‘lumotlarga erishishlari kutiladi. Maqsadli o‘quv dasturlar va o‘rganuvchilarga yo‘l-yo‘riqnomaga tayyorlanadi.

Mazmunli: Maktabgacha ta‘limning mazmuni mashg‘ulot rejalari, o‘quv dasturlari, fanlar va mashg‘ulotlardan tashkil topadi. Tarbiyalanuvchilar o‘quv rejalari orqali to‘liq mazmunni o‘rganishadi va tushunarli darajada bilim oladilar. Mazmunli ta‘lim dasturlari, qo‘llanmalar, o‘quv vositalari, bola ishlarining tarkibi va real foydalanish uchun kerakli materiallar tayyorlanadi.

Tashkiliy metodik: Maktabgacha ta‘limda tashkiliy metodikalar o‘quv jarayonini tashkil etishda qo‘llaniladi. Bu metodikalar, o‘quv jarayonining tashkillanishi, mashg‘ulotning o‘rgatish tartibi, turli o‘quv vositalari va texnikalarining qo‘llanishi, tarbiyalanuvchilar orasidagi hamkorlik va guruh bo‘lib ishlashni ta‘minlash va boshqa jihatlar bilan bog‘liq. Tashkiliy metodikalar o‘rganuvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantirish, ta‘lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun qo‘llaniladi.



**1-rasm. Chet tilni o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish modeli**

Nazorat-baholash: Maktabgacha ta'limda nazorat-baholash tizimi, o'quv jarayonini va bolalarning o'zlashtirish darajasini baholash uchun ishlatiladi. Bu nazorat jarayoni o'rganuvchilarning bilim va ko'nikmalarini, ularning rivojlanishini, o'quv jarayonining samaradorligini, til o'qituvchilarning ish faoliyatini, tashkiliy va metodik tadbirlarni baholashni o'z ichiga oladi. Baholash natijalari asosida o'quv jarayoni va dasturlar yanada takomillashtiriladi va yanada yuqori sifatli ta'lim ta'minlanadi.

Chet til o'rgatish jarayonida uzluksiz va uzviylik, aloqadorlik, tizimlilik va izchillik, taqqoslash, individuallik tamoyillari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Quyidagi ta'riflar va tavsiflar bu qismlarni yanada tushuntirishga yordam beradi.

Uzluksiz va uzviylik. Uzluksiz va uzviylikning o'rgatish jarayonida ahamiyati juda katta. Uzluksizlik til o'qituvchisi va bolalar o'rtasidagi biron bir chet tilning barqarorligi va tanqidiy muloqotni ta'minlashga imkon beradi. Til o'qituvchilari bolalar bilan uzviylik tizimida muloqot qilishlari va ularning o'quv jarayonidagi boshqaruvini tashkil etishlari kerak.

Aloqadorlik. Aloqadorlik, til o'qituvchisi va bolalar o'rtasidagi ishonch va ittifoqdagi munosabatlarni ifodalaydi. Til o'qituvchisi bolalarni o'rganish jarayonida ularga qarash, ular bilan birgalikda ishlash va bolalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash uchun muhimdir. Til o'qituvchisi va bolalar o'rtasidagi yaxshi aloqalar bolalarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganishini ko'proq muvaffaqiyat bilan amalga oshirishga imkon beradi.

Tizimlilik va izchillik. Chet til o'rgatishda tizimlilik va izchillik muhimdir. Tizimlilik, til o'qituvchilari tomonidan qo'llaniladigan to'g'ri tizim va tartibni ta'minlashni bildiradi. Bu o'quv dasturlari, o'quv vositalari, mashg'ulot rejalari va o'quv jarayonining juda muhim qismlarini o'z ichiga oladi. Izchillik esa til o'qituvchilari tomonidan samarali o'quv vositalari, texnikalar va turli o'quv usullari bilan bolalarning o'zlashtirishini ta'minlashni bildiradi.

Taqqoslash. Chet til o'rgatishda taqqoslash muhimdir. Til o'qituvchisi va bolalar o'rtasidagi o'zaro samarali taqqoslash, o'quv jarayonini oshirish va yangi bilimlarni o'rganishga yordam beradi. Til o'qituvchisi bolalarning tushuntirish va fikrlarini qabul qiladi, ularga maslahat beradi va ulardan fikr so'raydi. Bu taqqoslash jarayoni bolalarning tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va ularga o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatini beradi.

Individuallik tamoyillari. Chet til o'rgatishda har bir bola individuallik tamoyillariga e'tibor berish muhimdir. Til o'qituvchilari bolalarni o'ziga xos o'zlashtirish va o'rganish usullarini tanlashlari, ularning individual talablarini tushunish va ularga moslashtirilgan vazifalarni berishlari kerak. Individuallik tamoyillari bolalarning qiziqishlarini va ilg'orliklarini qondirishga yordam beradi va ularni o'rganish jarayonida maxsus yordamga ega bo'lishiga imkon beradi.

Bu qismlar chet til o'rgatishning muhim aspektlari hisoblanadi va til o'qituvchilari bolalarni sifatli bilim olish va o'rganishda yaxshi natijalarga erishishga yordam berish uchun ulardan foydalanishadi.

Barcha bu qismlar maktabgacha ta'limning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi va ulardan to'liq foydalanilishi o'rganuvchilarning sifatli bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlanishiga yordam beradi.

Jismoniy rivojlanish va sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'limda chet til o'rgatishdagi o'qituvchi kompetensiyasining muhim qismlaridan biridir. Quyidagi ta'riflar va tavsiflar bu kompetensiyani yanada tushuntirishga yordam beradi. Ushbu faoliyat bolalarning o'zlarini murakkab va sog'liqni saqlash uchun kerakli harakatlar va sport bilimlari asosida shakllanishini ta'minlashga yo'l ochadi. Til o'qituvchilari bolalarni jismoniy mashg'ulotlar orqali *TPR va Body language metodlari* chet tillar bilan shug'ullanishga rag'batlantirish, o'quv dasturiga muvofiq faol bo'lishlari va jismoniy yaxlitlikni ta'lim jarayoniga moslashish muhitini yaratishlari lozim. Bundan tashqari, o'z g'oyalari va fikrlarini to'g'ri va jonli ifoda etish, olingan bilimlarni yodda saqlashga yordam beruvchi "*Actions speak louder than words*" yondashuviga tayanib mashg'ulotlar olib borildi. Shuningdek, body language metodi bolalarga so'zlarni ravon va aniq tinglab tushunishga va tallaffuz qilishga imkon berishi kuzatildi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi va modelini yaratishda quyidagi nazariy qoidalarni asosladik:

– chet til o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish til o'qituvchining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biriga aylanishi lozim;

– chet til o'rganish jarayoni integrallashgan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, ya'ni bunda integratsiyalashgan tizimli ta'limning didaktik tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta'lim bilan yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshqa faoliyat turlari bo'yicha mavjud tajriba asosida amalga oshiriladi, o'rganish mazmuni, vositalari va usullari kengayadi, vaziyatlar o'zgaradi, individuallashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Integratsiya g'oyasining asoschisi Ya.A. Komenskiy sanaladi. Uning ta'kidlashicha: "Bir-biriga bog'langan hamma narsa doimo bog'langan bo'lishi va ong, xotira va til o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlanishi kerak"<sup>10</sup>.

Tadqiqot jarayonida bolalar uchun taqdim etilgan kommunikativ, fikrlarni to'g'ri, aniq, o'rinli ifodalashi, ya'ni izchil nutq qurish ko'nikmasini hosil qilishda o'z natijasini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda biz birinchi navbatda, uzluksiz va uzviylik, aloqadorlik, tizimlilik va izchillik, taqqoslash, individuallik tamoyiliga asosladik.

Bir so'z bilan aytganda, horijiy til o'rgatishda til o'qituvchisining bunday faoliyati bolalarni nutq faoliyati turlarini (tinglab tushunish, gapirish,) o'rgatishga yo'naltirilganligini unutmashimiz kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kommunikativ kompetensiya masalalari hozirgi xorijiy til o'rgatish metodikasi fani va amaliyotining eng dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Ta'lim berishda faollik tamoyilini amalga oshirish ma'lum ahamiyatga ega, chunki ta'lim berish va tarbiyalash, o'qitish sifatiga bog'liqdir. Bolalarni o'quv materialida taqdim etilgan axborotga munosabat, fikr bildirishning turli tabiiy va sun'iy kommunikativ vaziyatlarda ulardan o'z o'rnida foydalana olishni o'rganib borishni taqozo etiladi.

---

<sup>10</sup> Федорец Г.Ф. Проблемы интеграции в теории и практике обучения. Л. – 1990, 98 с.



Shu jihatlari bilan kommunikativlik prinsipi funksional yondashuv metodiga yoki ta'lim jarayonida og'zaki nutqni o'stirish prinsipiga uyg'unlashib ketadi.

Maktabgacha ta'limda chet til o'rgatish jarayonida bolalarni gapirishga, muloqotga kirishishga o'rgatib borilar ekan, bu jarayonda grammatik qoidalarni og'zaki nutq tarkibida o'zlashtirib olishiga e'tibor qaratiladi. Xorijiy til mashg'ulotlarini kommunikativ yo'nalishda olib borish o'z navbatida, pedagogik ta'lim jarayonlarida ilmning interaktiv metodlaridan samarali foydalangan holda bolalarning faolligini oshirish, o'quv materialining motivlashtirilishiga ham xizmat qilish zarur. Faollik va motivlashtirish yuqorida qayd qilinganidek o'rgatish metodlaridan samarali foydalanish, guruhda va guruhdan tashqari ishlarni to'g'ri tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik manbalar tahlili, maktabgacha yoshdagi bolalarda ustunlik qiladigan vizual-majoziy fikrlash mavjud. Bolalar tasvirlarda o'ylashadi va bu ularga iloji boricha ingliz tilidan foydalanishga imkon beradi – bolalar tarjimaga ehtiyoj sezmaydilar. So'zni uning tasviri bilan mos keladigan rasm – o'yinchoq, buyum, imo-ishora bilan bog'lash kifoya. Masalan, olma so'zi bilan bolalar xayoliy olma tishlagandek, imo-ishorani takrorlaydilar. Bu kabi o'yinlardan masalan: “O'zim tekshiraman”, “Tez javob”, “Rasmlar”, “Pantomima”, “Rasmlarni top” o'yini, “Sirli so'z”, “Zanjir”, “O'yin topishmoq” va boshqalar.


**“Rasmlar” o'yini.** Tarbiyachi predmet yoki hayvonlar tasvirlangan rasmlarni stol ustiga qo'yib chiqadi va bolalardan birini chaqiradi. Undan rasmlar orasidan qofiyasi mos keluvchi 2 ta rasmni tanlashni so'raydi. Masalan: *ball-doll, dog-frog, fox-box, sat-bat*. Bu o'yinlar mashg'ulotlar davomida o'tilgan mavzuga bog'lanib, ulardan mashg'ulotning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqasida foydalaniladi.

**“Rasmlarni tasvirlash” o'yini** (Describe the picture). Tarbiyachi bolalarga rasmlarni tarqatib chiqadi va ular rasmlardagi jismlarning nomini, rangini va shaklini tasvirlaydilar. Masalan: *This is a ball. This is a red ball. This is a big ball.*

Mashg'ulotlarda ko'rgazmali qurollardan, rangli kartochka va rasmlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi, predmet nomlarini eslab qolishlariga yordam beradi. Masalan: **“Nima qayerda yashaydi?” o'yini.** Ushbu o'yinning tarbiyaviy vazifasi predmetlarning tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajratishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda, maktabgacha ta'lim jarayonlarida multimediyali taqdimotlarning, asosan, yorqin rangdagi rasmlar va tanqidiy fikrlaydigan animatsion o'yinlardan tashkil topishi bolalarning chet tildagi yangi so'zlarni yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi. Buning uchun rasmlar qatoriga bolalarga tanish bo'lgan ertak qahramonlarini ham joylashtirib, ijobiy va salbiy qahramonlarni tasvirlashlariga imkon berish kerak. Masalan: “Zumrad va Qimmat” (Zumrad and Kimmat), “Qizil Qalpoqcha” (Little Red Riding Hood), “Irkit o'rdakcha” (The Ugly Duckling), “Uyqudagi go'zal” (Sleeping Beauty), “Oppog'oy” (Snow White), “Kuloyim” (Cinderella), “Buratino” (Pinocchio), “Pitter Pen” (Pitter Pan) va hokazo. Shunday qilib, bolalardan ular qaysi ertak qahramonlari ekanligini so'rash mumkin. Masalan: *What kind of character are*

they? Ular qanday qahramonlar? *Why do you like or dislike them?* Nima uchun ular sizlarga yoqadi? yoki aksincha. Bunday dastur nafaqat bolalarni o'ziga jalb etuvchi, balki MTTlar uchun mo'ljallangan ta'lim-tarbiya dasturlari sifatida rejali ravishda amalga oshiriladigan vositalardan biridir. Bolalar har bir videoli ertakda, albatta, uni ezgulikka chorlovchi jihatni ko'radilar va unga rioya qilishni o'rganadilar (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga chet til o'rgatish bo'yicha ishchi dastur asosida multimediyali o'yinli mashg'ulotlar to'plami**

Dissertatsiya ishimiz doirasida ishlab chiqilgan "Smart kids" elektron qo'llanmasida jami 12 ta content mavjud bo'lib, har bir mavzu tarkibida 2 tadan topshiriq bor. Birinchisi animation deb nomlangan bo'lim bo'lsa, ikkinchisi esa o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida **TEST** yoki **GAME** berilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga chet (ingliz) tilni o'rgatishga oid tajriba-sinov ishlari mazmuni**" nomli III-bobida maktabgacha ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosida chet til o'rgatishga doir tajriba-sinov ishlarining mazmuni, o'tkazish metodikasi, tashkil etishning asosiy bosqichlari, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining natijalari va samaradorlik ko'rsatkichlari hamda maktabgacha ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosida chet til o'rgatishning shakllanganlik holatining tahlili keltirilgan (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### **Chet tilni o'rgatish jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish darajasini aniqlash mezonlari**

<b>Guruhlar</b>	<b>Mezonlar:</b>
<b>Katta guruh</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-chet til egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsata olish;</li> <li>-chet tilda she'rlarni yod olish;</li> <li>-ertak va hikoyani ingliz tilida bayon etish;</li> <li>-o'z nutqida to'g'ri va ravon talaffuz qilish;</li> <li>-qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalana olish;</li> <li>-buyumlarning nomini yoddan bilish.</li> </ul>

